К вопросу обучения местоимению в корейском языке	631
Муҳиддинова Малика Батировна	
The Importance and its Development Models of Critical Thinking	634
Khasanova Shokhista Mirzaakhmad kizi	
Gipertoniya kasalligining rivojlanishida sotsio-emotsional intellektning ta'siri	639
Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li	
Integratsiyalashgan va interaktiv yondashuvlar orqali o'qish tushunishini o'rgatish.....	643
Aliqulova Mohinur	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarning shaxsiy kasbiy fazilatlarini shakllantirish.....	647
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ravshanova Noila	
Didactic Potential of Innovative Methods in Teaching Biophysics Module	652
Choriyeva Mahfuza Sadriddinovna	
Notiqlik mahoratini rivojlantirishning tarixiy pedagogik ildizlari	657
Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li	
Kartografiya darslarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitish yo'llari	660
Jololdinov Asror Toshtemirovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruh tarbiyalanuvchilariga yo'l harakati turlari bo'yicha xavfsizlik talablarini o'rgatish.....	664
Jumayev Yunus Rashidovich	
Texnika yo'nalishidagi talabalarini ingliz tilini multimedia asosida o'qitishda o'quv modullarini loyihalash ...	670
Maxmudova Shaxnozaxon Odiljon qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlashga o'rgatish	674
Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna	
Tajovvuz emotsiyasini tafsiflovchi fe'llar	677
Normaxmatova Feruza Ruziboyevna	
O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari	681
Otegenov Berdibay Menglibaevich	
Texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish muammolari	684
Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna, Xolmirzayeva Gulchehra Tulanovna	
Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
Ибрагимова З. И.	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'рни	725
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	



GIPERTONIYA KASALLIGINING RIVOJLANISHIDA SOTSIO- EMOTSIONAL INTELLEKTNING TA'SIRI

Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gipertoniya kasalligining kelib chiqishida psixo-emotsional omillar va sotsio-emotsional intellektning o'rni yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olmasligi va stressni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishi gipertoniya rivojlanishiga olib keladi hamda davolash jarayonida to'liq tiklanishga to'sqinlik qiladi. Shunday vaziyatlarda bemorlarning emotsional intellekt (EQ) darajasi, ularning stressga bardoshliligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada AQSh, Yevropa va MDH davlatlarida olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilinib, gipertoniya profilaktikasi hamda davolash jarayonida sotsio-emotsional intellektni rivojlantirishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: gipertoniya, stress, salbiy hislar, ijobiy hislar, sotsio-emotsional intellekt, empatiya.

Abstract: This article highlights the role of psycho-emotional factors and socio-emotional intelligence in the development of hypertension. Research shows that an individual's inability to control emotions and difficulties in managing stress contribute to the development of hypertension and hinder full recovery during treatment. In such cases, patients' level of emotional intelligence (EQ), their stress resilience, and the degree of social support are considered important factors. The article analyzes scientific studies conducted in the USA, Europe, and CIS countries, substantiating the importance of developing socio-emotional intelligence in the prevention and treatment of hypertension.

Key words: hypertension, stress, negative emotions, positive emotions, socio-emotional intelligence, empathy.

Аннотация: В данной статье освещается роль психоэмоциональных факторов и социоэмоционального интеллекта в развитии гипертонической болезни. Исследования показывают, что неспособность человека контролировать собственные эмоции и трудности в управлении стрессом способствуют развитию гипертонии и препятствуют полноценному восстановлению в процессе лечения. В таких случаях важными факторами считаются уровень эмоционального интеллекта (EQ) пациента, его стрессоустойчивость и степень социальной поддержки. В статье анализируются научные исследования, проведенные в США, Европе и странах СНГ, обосновывается значимость развития социоэмоционального интеллекта в профилактике и лечении гипертонии.

Ключевые слова: гипертония, стресс, негативные эмоции, позитивные эмоции, социоэмоциональный интеллект, эмпатия.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo bo'yicha yuqori qon bosimi (gipertoniya) kasalligi bilan kasallanish darajasi ortib borayotganligi mavzuni o'rganish dolzarbligini ko'rsatadi. Bu borada Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Jahon yurak federatsiyasi, Yevropa kardiologiya jamiyati, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa tashkilotlar hamda olimlar gipertoniya kasalligi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'ylab 30-79 yosh orasidagi taxminan 1,28 milliard odam gipertoniya-dan aziyat chekadi.¹ Erkaklar ayollarga nisbatan ko'proq kasallanadi: har 4 ta erkakdan biri, har 5 ta ayoldan biri ushbu kasallik bilan yashaydi. Ularning aksariyati (uchdan ikki qismi) past va o'rta daromadli mamlakatlarda istiqomat qiladi, yarmidan ko'pi esa davolanmaydi. Gipertoniya kasalligining asoratlari insult, yurak xuruji, buyrak yetishmovchiligi kabi og'ir kasalliklarni keltirib chiqaradi. O'lim ko'rsatkichi esa har yili 18 million kishini tashkil qiladi.

O'zbekistonda ham bugungi kunda aholi salomatligi masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari tomonidan aholining sog'lig'ini mustahkamlash masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

1 <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/hypertension>

So'nggi yetti yil ichida tibbiyot sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar 6 barobarga oshdi. 2025-yilda sohaga byudjetdan ajratiladigan resurslarni 20%ga oshirib, 41 trillion so'mga yetkazish nazarda tutilgan.² Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev insonlarning o'rtacha umr ko'rish darajasini 78 yoshga yetkazishni ham maqsad qilgan. Albatta, uzoq umr ko'rish uchun aholining tibbiy va psixologik salomatligini yaxshilash nazarda tutiladi. Demak, bu ham mavzuyimizni o'rganish dolzarbligini tasdiqlaydi. Endi mavzuning o'rganilganlik darajasi bo'yicha adabiyotlar tahliliga murojaat qilamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuni dastlab gipertoniya, keyin esa intellektual hislar va ularning o'zaro bog'liqligi bo'yicha ma'lumotlar bilan tahlil qilamiz. Gipertoniya (yunoncha hyper – ortiqcha, tonos – taranglik, bosim) arterial qon bosimining oshishi bilan kechadigan surunkali kasallikdir. Bunda maksimal bosim (sistolik) ham, minimal (diastolik) arterial bosim ham ko'tariladi. Insonlarda qon bosimining me'yori odatda qancha bo'ladi? Me'yor oshganda, ya'ni gipertoniya yoki gipertenziyada u necha simob ustuniga ko'tariladi?³ Bu borada JSST qon bosim darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqqan. So'nggi yillarda psixologiya va tibbiyot fanlarida sotsio-emotsional intellekt tushunchasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Sotsio-emotsional intellekt – bu insonning o'z va boshqalar emotsiyalarini to'g'ri anglash, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sotsio-emotsional intellekti yuqori bo'lgan shaxslar stressni boshqarishda muvaffaqiyatliroq, psixologik barqarorlikka ega bo'lib, turli kasalliklarga, jumladan gipertoniya rivojlanishiga kamroq moyil bo'ladilar. Aksincha, sotsio-emotsional intellekti past shaxslar stress holatlarida o'z emotsiyalarini boshqara olmaydi, ijtimoiy muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi. Uzoq davom etuvchi psixologik zo'riqish (stress) esa yurak-qon tomir tizimida salbiy o'zgarishlarga olib kelib, arterial bosimning doimiy oshib borishini rag'batlantiradi. Shu sababli gipertoniya kasalligining rivojlanishini o'rganishda sotsio-emotsional intellekt darajasini inobatga olish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada sotsio-emotsional intellektning gipertoniya kasalligining shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi.

Gipertoniya xastaligini yuzaga keltiruvchi omillarga to'xtalsak: tibbiyotga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, markaziy nerv tizimidagi tez-tez takrorlanadigan salbiy kechinmalar, moddalar almashinuvining buzilishi, irsiy moyillik, kamharakatlilik, o'tkir ruhiy-emotsional jarohatlar, ortiqcha vazn, xolesterin darajasining oshishi, ovqatlanish ratsionining buzilishi (tuzli va sho'r ovqatlarni ko'p iste'mol qilish), endokrin kasalliklar, buyrak va siydik tizimi kasalliklari gipertoniya sabab bo'lishi mumkin. Demak, tibbiyot adabiyotlarida ham gipertoniya xastaligining yuzaga kelishida inson psixologiyasida yuz beradigan hissiyotlarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, gipertoniya kasalligining hissiyotlar bilan bog'liqligi tasdiqlanadi. Gipertoniya klinik kechishiga qarab uch davrga bo'linadi:

- Birinchi davr** – kasallikning boshlang'ich davri bo'lib, bunda qon bosimi asosan ruhiy-hayajon ta'sirida vaqtincha ko'tarilib turadi, bu davrda kasallik qaytalovchan bo'ladi.
- Ikkinchi davr** – arterial bosimning doimiy ko'tarilib turishi bilan xarakterlanadi, maxsus davo qilinmasa, bosim pasaymaydi, gipertoniya krizlariga moyillik kuchayadi.
- Uchinchi davr** – sklerotik davr deb ataladi. Bu davrda buyrak va boshqa a'zolar tomirlarida, aorta toj tomirlari hamda miya tomirlarida qaytmas o'zgarishlar yuz beradi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Gipertoniya xastaligining klinik kechish davrlarida, hatto dastlabki bosqichida ham hissiy-emotsional qo'zg'alishlar tufayli yuzaga kelishi, ushbu kasallikning his-tuyg'ularga bog'liqligini tasdiqlash mumkin. Gipertoniya kasalligini davolashda tibbiy dori-darmonlar va ovqat parhezlaridan tashqari, bemorning ruhiy osoyishtaligini ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratiladi. Asosiy maqsad asabiy va ruhiy zo'riqishlarni bartaraf etish, ya'ni asab tizimini ehtiyotlash, uyda va ishxonada behuda asabiylashmaslik, odamlar bilan xushmuomala bo'lish va yaxshi munosabat o'rnatish zarurligini bemorga tushuntirishdan iborat. Albatta, bu xususiyatlar insonning intellektual hislarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Demak, gipertoniya kasalligini oldini olish va davolashda bevosita insonning emotsional-intellektual qobiliyatlari rivojlanganlik darajasini inobatga olish muhimdir. Biroq mavjud tadqiqotlarning ko'pchiligi his-tuyg'ularning faqat ayrim turlarini qamrab olgan bo'lib, mavzu hali to'liq o'rganilmaganini ko'rsatadi. Ba'zi tibbiyot xodimlari gipertoniya bilan xastalangan bemorlarga asosan tibbiy maslahatlar berish bilan cheklanib, psixologik tomondan esa "asabiylashmang, achchiqlanmang, ko'p siqilmang" kabi umumiy tavsiyalar bilan kifoyalanadilar. Bu esa kasallikni to'laqonli davolash jarayonini kechiktirishi

² <https://lex.uz/uz/docs/-7264914>

³ Y.L. Arslonov, T.A. Nazarov, A.A. Bobomurodov. Ichki kasalliklar . Tibbiyot kollejlari uchun o'quv qo'llanma (2-nashri). T.: "ILM ZIYO", 2014. -392 b.



mumkin. Shu sababli, kasallikni oldini olish va davolashda bemorning psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Psixologik xususiyatlardan biri bu – intellektual hislardir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Endi intellektual hislar haqida ma'lumotlar tahliliga o'tsak. Intellektual hislar (odatda "EQ" deb qisqartiriladi, ya'ni hissiy koeffitsient) – bu o'z his-tuyg'ularini tushunish va boshqarish, boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, ularga hamdardlik ko'rsatish hamda ijtimoiy munosabatlarni samarali boshqarish qobiliyatidir. Emotsional intellekt tushunchasini 1990-yilda Garvard universiteti psixologi Daniel Goleman birinchilardan bo'lib dolzarb mavzu sifatida tilga olgan. U o'z ishlarida yuqori EQ darajasiga ega shaxslar o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq boshqarishi, stressga chidamli bo'lishi va sog'lom hayot tarziga ega ekanini ta'kidlaydi. Stressni boshqarish gipertoniya rivojlanishida muhim rol o'ynashini inobatga olsak, Goleman ishlari gipertoniya jarayonida intellektual hislarning ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Goleman o'zining "Emotional Intelligence" kitobida EQ darajasi yuqori bo'lgan odamlar stressga chidamliroq bo'lishi, yurak-qon tomir kasalliklariga kamroq moyil bo'lishi hamda ruhiy salomatligi yaxshiroq bo'lishini ta'kidlaydi. U, shuningdek, EQ ni rivojlantirish mumkinligini va bu salomatlikni yaxshilashga olib kelishini ko'rsatgan. Richard Lazarus esa "Stress, Appraisal, and Coping" (Stress, uni baholash va unga moslashish) asarida shaxsning vaziyatni baholash va stressga moslashish qobiliyatining sog'liqqa ta'sirini o'rganadi. Uning fikricha, stressni boshqarish intellektual resurslarni, jumladan, his-tuyg'ularni boshqarish va muammolarni hal qilishni ham o'z ichiga oladi. Bu ishlari stressga chidamlilik va gipertoniyaning oldini olishda intellektual hislarning rolini ochib beradi. Shelley Taylor esa "Positive Illusions: Creative Self-Deception and the Healthy Mind" (Ijodiy illyuziyalar: ijodiy o'zini aldash va sog'lom ong) kitobida ijobiy his-tuyg'ular va optimizmning stressni yengishda va sog'liqni saqlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Intellektual hislar, xususan, ijobiy his-tuyg'ularni boshqarish va muammolarga optimistik yondashish gipertoniya profilaktikasida samarali bo'lishi mumkin.

Seylovey Gardner hissiy intellektni beshta asosiy yo'nalishga ajratadi: o'z hissiyotlarini anglash, ularni boshqarish, o'z-o'zini motivatsiya qilish, boshqa odamlarning his-tuyg'ularini tan olish va o'zaro munosabatlarni saqlash.⁴ Gardnerning ushbu yo'nalishlari asosida insonlarda EQ darajasini rivojlantirish bosqichlarini belgilash mumkin. Xorijiy olimlarning his-tuyg'ular bo'yicha olib borgan tadqiqotlari ham his-tuyg'ularning inson salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shunday qilib, gipertoniya va his-tuyg'ular o'zaro bog'liqligi bo'yicha adabiyotlar tahlili ushbu mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. Ingliz olimlari Schulz va Schwab afrikalik qora tanlilar va amerikalik qora tanlilar o'rtasida gipertenziya bilan kasallanish darajasida statistik jihatdan sezilarli farq borligini aniqladilar. Afrikalik qora tanlilarda gipertenziya juda kamdan-kam uchrasa-da, bu kasallik Qo'shma Shtatlardagi qora tanlilar orasida keng tarqalgan. Shubhasiz, farq irqdan ko'ra ko'proq madaniy omillarga bog'liq. Aftidan, amerikalik qora tanlilarda ijtimoiy moslashishdagi qiyinchiliklar kuchli o'z-o'zini nazorat qilish zarurati tufayli yuzaga keladi, bu esa keyinchalik hal qiluvchi etiologik omilga aylanadi.⁵ Psixososial stress gipertoniya kasalligining rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Stressning uzoq davom etishi gipotalamo-gipofizar-buyrak usti tizimini faollashtirib, arterial bosimni doimiy oshiradi. Sotsio-emotsional intellekt esa stressni boshqarish, emotsiyalarni nazorat qilish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan foydalanish orqali gipertoniya xavfini kamaytiradi. Ko'pchilik tadqiqotchilar yurak-qon tomirlari kasalliklari va asab kasalliklari orasida bog'lanishni ta'kidlaydilar.

M. Pflandning ta'kidlashicha, gipertonik kasallar (qon bosimi ortishi) dastlab shifokorga o'zlarining asabiy bo'lib qolganlaridan shikoyat qiladilar, faqat tekshiruv natijasida ularda qon bosimi balandligi ma'lum bo'ladi. Rus olimi K.D. Sudakov o'tkazgan tadqiqotlari natijasida yurak-qon tomir kasalliklarining sababini yurak-qon tomir tizimidan emas, balki miyada kechadigan har xil jarayonlardan izlash kerak, degan xulosaga birinchi bo'lib keladi. Ushbu olimlarning fikrlari ham gipertoniya kasalligining klinik kechishini birinchi bosqichda va davolash davomida ham ahamiyat qaratish zarurligini ko'zda tutadi. S. Nichkovaning tadqiqotlarida kechki payt sinaluvchilar televizor ko'rayotganida qon bosimining o'zgarishi o'rganilgan. Axborot, sport ko'rsatuvlari va kino filmlarni ko'rish davomida sinaluvchilarning qon bosimi, ayniqsa detektiv kino filmlarni ko'rishda ortgan. Gipertoniklarda bu holat 15 soatgacha saqlanib qolgan. Bundan insonga ko'rsatuvning hissiy tomoni ta'sir qilishi va insonning ko'rsatuvga shaxsiy munosabati ham katta rol o'ynashi ma'lum bo'ladi. Nichkovaning tadqiqotida his-tuyg'ularni boshqara olmaslik oqibatida hissiyotlar girdobiga tushib qolish natijasida qon bosimi oshishini ko'rishimiz mumkin. Tibbiyot fanlari doktori, professor Z. Ibodullayevning fikricha, his-tuyg'u odam faoliyatining turli jihatlar – mehnat, ilmu fan va san'atga rag'batlantiruvchi kuch ham hisoblanadi. Lekin shuni nazarda tutish kerakki, hissiyot odam faoliyatini faqat uyg'unlashtirmasdan, balki uni izdan chiqarib qo'yishi ham mumkin. His-tuyg'ular, ayniqsa, yurak-qon tomir sistemasiga va arterial qon bosimiga keskin ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi

4 D. Goleman. Hissiy intellekt. T.: "ZUKKO KITOBXON", 2023. -640 b

5 Abdullayev S. M.; Mamatrimova F. B. Mamasaidova S.O'. "zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" nomli ilmiy-amaliy konfrensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7629325>



tahlillarni umumlashtirganda gipertoniya kasalligining rivojlanishida intellektual hislarning ta'siri katta ekanligini bilishimiz mumkin. Gipertenziv respondentlar orasida (9,9%) umumiy aholiga (4,9%) qaraganda ancha yuqori darajadagi psixologik stress kuzatilgan va bu ikki holat o'rtasida sezilarli bog'liqlik mavjud [odd nisbati (OR) = 2,27 (1,91; 2,70)]. Gipertenziv respondentlar orasida iztirob bilan bog'liq belgilar Armaniston yoki Qirg'izistonda yashash, ayol bo'lish, 50 yoshdan oshish, iqtisodiy ahvoli yomonlik, ma'lumoti pastlik, hissiy yordam va tibbiy dori vositalaridan foydalanishning cheklanganligi bilan bog'liq. Qiyinchilik darajasi 2001-2010 yillar oraliqida kamaygan, ammo gipertenziv respondentlarda pastroq darajada [darajali nisbat (RR) = 0,85 (0,75; 0,95)] bo'lmagan respondentlarga qaraganda [RR = 0,65 (0,56; 0,75)].

XULOSA

Umumiy xulosaga kelsak, gipertoniya kasalligini rivojlanishiga intellektual hislarning ta'siri borligini bilishimiz mumkin. Gipertoniya kasalligini oldini olishda va davolashda bevosita insonning emotsional-intellektual qobiliyatlari rivojlanganlik darajasini inobatga olish muhimdir. Intellektual hislar bu – o'z his-tuyg'ularini anglash, ya'ni inson ayni vaqtda qanday hissiyot turi bilan yashayotganini bilish; o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish, ya'ni salbiy his-tuyg'ulardan chiqib keta olish; boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, ya'ni boshqa insonlar qanday hissiyotlar bilan munosabatda bo'layotganini tushunish; empatiya bildirga olish, ya'ni boshqalarning his-tuyg'ularini anglagan holda vaqtida to'g'ri tushunish va hamdardlik ko'rsata olishdir. Albatta, empativlik darajasi me'yorda rivojlangan bo'lsa yaxshi, ammo empativlik darajasi me'yordan yuqori bo'lsa, bunday insonlarda gipertoniya kasalligi kuzatilishi mumkin. Ijtimoiy munosabatlarni samarali boshqarish kabilar intellektual hislarning rivojlantirish darajasining umumiy belgilaridan biridir. Farazimiz bo'yicha, intellektual hislari yaxshi rivojlangan insonlarda gipertoniya kasalligi kamroq kuzatiladi, chunki ular salbiy his-tuyg'ulardan va stressdan tezroq chiqib keta olishadi. Psixologik metodikalar orqali EQ darajasini aniqlash mumkin, bu esa bemorlar bilan qanday tartibda ishlashni ham belgilab beradi. Shu asnoda, ba'zi bemorlarni davolashda mutaxassis psixologlar bilan hamkorlik qilish natijasida kasallikni tezroq davolash va oldini olish mumkin. Bunga asos sifatida Goleman EQ ni rivojlantirish mumkinligini va bu salomatlikni yaxshilashga olib kelishini ta'kidlaydi. Menimcha ham intellektual hislarni rivojlantirish mumkin. Sotsio-emotsional intellekti yuqori bo'lgan shaxslar o'z emotsiyalarini samarali boshqara oladi, stressli vaziyatlarda bardoshlilik ko'rsatadi va ijtimoiy munosabatlarda faol bo'ladi. Bu esa ularning psixologik barqarorligini oshirib, yurak-qon tomir tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan stress gormonlarining haddan tashqari faollashishini cheklaydi, natijada gipertoniya rivojlanish xavfi kamayadi.

AQSh, Yevropa va Rossiyada o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar gipertoniya va psixososial stress o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asoslab berdi. Rossiya va MDH mamlakatlarida esa gipertoniya yuqori darajada tarqalganligi qayd etilgan bo'lib, aholining sezilarli qismi yuqori psixo-emotsional stress ostida yashaydi. Bu holat gipertoniya rivojlanishini tezlashtiruvchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Shunday qilib, gipertoniya profilaktikasida va davolash jarayonida faqat dori-darmon vositalarini qo'llash bilan cheklanmasdan, balki bemorlarning sotsio-emotsional intellektini rivojlantirish, stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarurdir. Ushbu yondashuv kasallikning tarqalishini kamaytirishga, bemorlarning hayot sifatini oshirishga hamda sog'liqni saqlash tizimida samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 380 b.
2. Z.Ibodullayev. Asab va ruhiyat. Ilmiy-ommabop risola – Toshkent: "Zamin nashr", 2018. – 232 b.
3. Z.T. Nishanova, N.G'. Kamilova, G.Q. Alimova. Psixogigiena. O'quv qo'llanma. Toshkent 2007. 30-bet
4. D. Goleman. Hissiy intellekt. T.: "ZUKKO KITOBXON", 2023. -640 b
5. Y.L. Arslonov, T.A. Nazarov, A.A. Bobomurodov. Ichki kasalliklar . o'quv qo'llanma (2-nashri). T.: "ILM ZIYO", 2014. -392 b
6. Abdullayev S. M.; Mamatraimova F. B. Mamasaidova S.O'. "zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" nomli ilmiy-amaliy konfrensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7629325>
7. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/hypertension>
8. <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/23480878/>
9. <https://lex.uz/uz/docs/-7264914>
10. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7629325>
11. www.who.int.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.